O‘ZBEKISTONDA “YASHIL” LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISHDA MOLIYAVIY INSTRUMENTLARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH

Saloxov Sirojiddin Sadriddin o‘g‘li
TDIU mustaqil izlanuvchisi. O‘zbekiston, Toshkent.
E-mail: saloxovsirojiddin09@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekistonda “yashil” loyihalarni moliyalashtirishning iqtisodiy xususiyatlari, moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlari va ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tadqiq etilgan. “Yashil” kreditlash, moliyaviy lizing, investitsiya kafolatlari, davlat-xususiy sheriklik va aralash moliyalashtirish mexanizmlarining investitsiya jarayonidagi o‘rni ochib berilgan. Shuningdek, moliyaviy instrumentlarni loyihalarning investitsiyaviy xususiyatlariga muvofiq tanlash, moliyaviy risklarni kamaytirish va ekologik samaradorlikni baholashga asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: “yashil” iqtisodiyot, “yashil” moliyalashtirish, moliyaviy instrumentlar, investitsiya, tijorat banklari, “yashil” kreditlash, moliyaviy lizing, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya risklari.

Jahon iqtisodiyotida barqaror rivojlanish tamoyillarining ustuvor ahamiyat kasb etishi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash bilan bir qatorda tabiiy resurslardan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash va ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhitga salbiy ta’sirini kamaytirishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish nafaqat ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizatsiya qilish, balki investitsiya resurslarini shakllantirish va taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish bilan ham bevosita bog‘liqdir.

“Yashil” iqtisodiyot loyihalarining o‘ziga xos jihati shundaki, ularni amalga oshirish ko‘pincha yuqori boshlang‘ich investitsiya xarajatlarini talab etadi, iqtisodiy samara esa nisbatan uzoq muddat davomida shakllanadi. Bunday sharoitda an’anaviy moliyalashtirish usullaridan foydalanish ayrim loyihalarning investitsiyaviy jozibadorligini yetarli darajada ta’minlamasligi mumkin. Shu sababli ekologik loyihalarning iqtisodiy xususiyatlariga moslashgan moliyaviy instrumentlarni rivojlantirish “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda mazkur yo‘nalishdagi islohotlarning huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari bilan mustahkamlangan. Ushbu hujjatlarda

iqtisodiyot tarmoqlarining energiya samaradorligini oshirish, ekologik texnologiyalarni keng joriy etish, “yashil” investitsiyalarni rag‘batlantirish va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ustuvor vazifalar belgilangan.[1,2]

Mazkur vazifalarning samarali amalga oshirilishi mavjud moliyaviy resurslarni ko‘paytirish bilangina cheklanmasdan, ulardan foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda davlat va xususiy kapital o‘rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishni talab etadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning asosiy maqsadi O‘zbekistonda “yashil” loyihalarni moliyalashtirishda qo‘llaniladigan moliyaviy instrumentlarning iqtisodiy imkoniyatlarini aniqlash hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

“Yashil” loyihalarni moliyalashtirish iqtisodiy mazmuniga ko‘ra, ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi investitsiya loyihalarini zarur moliyaviy resurslar bilan ta’minlash hamda ushbu resurslarning maqsadli va samarali ishlatilishini tashkil etish jarayonini ifodalaydi. Mazkur jarayonda moliyalashtirishning iqtisodiy natijadorligi investitsiyalarning daromadliligi, kapital qiymati va qaytarilish muddati bilan, ekologik natijadorligi esa resurslar tejamkorligi hamda atrof-muhitga salbiy ta’sirning kamayishi bilan belgilanadi.

Shu jihatdan “yashil” moliyalashtirishning samaradorligini faqat ajratilgan mablag‘lar hajmi yoki moliyalashtirilgan loyihalar soni orqali baholash yetarli emas. Moliyaviy resurslarning qaysi instrument orqali jalb etilgani, uning loyiha xususiyatlariga muvofiqligi hamda kutilayotgan iqtisodiy va ekologik natijalarga ta’siri ham muhim ahamiyatga ega.

“Yashil” investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda yuzaga keladigan asosiy cheklovlarni boshlang‘ich kapital xarajatlarining yuqoriligi, uzoq muddatli moliyaviy resurslarga ehtiyoj, garov ta’minotining yetishmasligi, texnologik tavakkalchiliklar va ekologik samaradorlikni baholashdagi murakkabliklar bilan izohlash mumkin. Ushbu omillar loyihalarning moliyaviy barqarorligiga turlicha ta’sir ko‘rsatganligi sababli ularni bartaraf etishda yagona moliyalashtirish usulidan foydalanish har doim ham kutilgan natijani bermaydi.

Fikrimizcha, “yashil” loyihalarni moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish, avvalo, moliyaviy instrumentlarni loyihaning iqtisodiy xususiyatlariga muvofiq tanlash va ularning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlashga asoslanishi lozim. Bunda tijorat banklarining maqsadli kreditlari, moliyaviy lizing, kredit kafolatlari, davlat-xususiy sheriklik hamda aralash moliyalashtirish mexanizmlari muhim o‘rin egallaydi.

1-jadval.

“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda qo‘llaniladigan moliyaviy instrumentlar va ularning iqtisodiy imkoniyatlari

Moliyaviy instrument	Qo‘llanish sohasi	Iqtisodiy afzalligi
“Yashil” kreditlash	Energiya va resurs tejovchi loyihalar	Uzoq muddatli investitsiya resurslarini jalb qilish

Moliyaviy lizing	Ekologik texnologiya va uskunalar	Boshlang‘ich kapital xarajatlarini kamaytirish
Kredit kafolatlari	Garov ta’minoti cheklangan loyihalar	Kredit risklarini qisman taqsimlash
Davlat-xususiy sheriklik	Yirik ekologik infratuzilma	Davlat va xususiy investitsiyalarni birlashtirish
Aralash moliyalashtirish	Moliyaviy riski yuqori ekologik loyihalar	Imtiyozli va tijorat resurslarini uyg‘unlashtirish

Jadvalda keltirilgan moliyalashtirish instrumentlarining iqtisodiy imkoniyatlari ularning investitsiya jarayonida bajaradigan vazifalariga ko‘ra farqlanadi. Jumladan, “yashil” kreditlash loyihalarni qarz kapitali bilan ta’minlashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, moliyaviy lizing ishlab chiqarish vositalarini yangilash bilan bog‘liq boshlang‘ich xarajatlarni davriy to‘lovlar orqali qoplash imkonini beradi. Kredit kafolatlari moliyaviy tashkilotlar zimmasidagi ayrim risklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Davlat-xususiy sheriklik va aralash moliyalashtirish esa turli ishtirokchilarning moliyaviy imkoniyatlarini birlashtirish orqali yirik hamda investitsiyaviy jihatdan murakkab loyihalarni amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Mazkur instrumentlar orasida tijorat banklarining maqsadli kreditlari “yashil” investitsiyalarni moliyalashtirishning muhim vositalaridan biri hisoblanadi. Biroq ekologik loyihalarning moliyaviy xususiyatlarini hisobga olmasdan qo‘llaniladigan an’anaviy kreditlash shartlari investitsiya samaradorligini cheklashi mumkin. Xususan, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish natijasida shakllanadigan iqtisodiy samara ma’lum vaqt davomida yuzaga kelishi sababli kredit to‘lovlarini aynan shu davrdagi pul oqimlariga moslashtirish zarur.

O‘zbekistonda Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining GEFF II dasturi moliyaviy tashkilotlar orqali ekologik loyihalarni kreditlashni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizmlardan biri hisoblanadi. Dastur tadbirkorlik subyektlarining iqlim o‘zgarishini yumshatish va unga moslashishga qaratilgan investitsiyalarini moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan.[3]

Ushbu yondashuvdan kelib chiqib, mahalliy tijorat banklarida “yashil” kreditlashning ixtisoslashgan mexanizmlarini rivojlantirish, bunda kredit muddatlari va to‘lov shartlarini loyihaning iqtisodiy samaradorligiga muvofiq belgilash maqsadga muvofiq. Bu qarz oluvchilarning moliyaviy yukini muvozanatlashtirish bilan birga banklar kredit portfelining sifatini saqlashga ham xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, barcha ekologik loyihalarni kredit mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish iqtisodiy jihatdan samarali yechim hisoblanmaydi. Ayniqsa, kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlari tomonidan yangi texnologiyalarni xarid qilishda moliyaviy lizing instrumentidan foydalanish muhim afzalliklarga ega. Mazkur mexanizm korxonalar uchun bir martalik yirik kapital xarajatlarni kamaytirish va texnologik modernizatsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish imkonini beradi.

Biroq lizingning iqtisodiy samaradorligi faqat uskunadan foydalanish imkoniyati bilan emas, balki uning xizmat muddati, ishlab chiqarish unumdorligi, texnik xizmat xarajatlari va lizing to‘lovlarining korxona pul oqimlariga muvofiqligi bilan ham belgilanadi. Shu sababli “yashil” lizing mahsulotlarini rivojlantirishda moliyaviy baholash bilan bir qatorda texnologik va ekologik ekspertiza mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

“Yashil” loyihalarni moliyalashtirishda investitsiya risklarini kamaytirish masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ayrim istiqbolli loyihalarning yetarli garov ta’minotiga ega emasligi yoki yangi texnologiyalar bilan bog‘liq noaniqliklar mavjudligi moliyaviy resurslardan foydalanishni murakkablashtirishi mumkin. Bunday sharoitda qisman kredit kafolatlari va risklarni taqsimlash instrumentlari moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi qo‘shimcha vosita sifatida qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

Yirik ekologik infratuzilma loyihalarida esa moliyalashtirishning uzoq muddatli xususiyati va katta kapital talab qilinishi davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan foydalanish zaruratini kuchaytiradi. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni davlat va xususiy sheriklarning resurslarini birlashtirish hamda loyihalarni hamkorlik asosida amalga oshirishning huquqiy asoslarini belgilaydi.[4]

Mazkur mexanizmning afzalligi davlatning institutsional imkoniyatlari bilan xususiy sektorning investitsiyaviy va boshqaruv salohiyatini uyg‘unlashtirishdan iborat. Biroq uning samaradorligi moliyaviy risklarning loyiha ishtirokchilari o‘rtasida oqilona taqsimlanishiga, majburiyatlarning aniq belgilanishiga va loyihaning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga bog‘liq.

Moliyalashtirishning qo‘shimcha imkoniyati sifatida aralash moliyalashtirish mexanizmlaridan foydalanish ham istiqbolli hisoblanadi. Ushbu yondashuv xalqaro moliya institutlari, davlat va xususiy investorlar resurslarini birlashtirish orqali ekologik jihatdan ahamiyatli, biroq tijorat moliyalashtirishi uchun yetarlicha jozibador bo‘lmagan loyihalarni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining aralash moliyalashtirish bo‘yicha yondashuvlarida imtiyozli moliyaviy resurslardan xususiy kapitalni qo‘shimcha jalb etish, investitsiya risklarini kamaytirish va moliyalashtirishning tijoriy barqarorligini ta’minlash maqsadida foydalanish zarurligi ta’kidlangan.[5]

Shundan kelib chiqib, aralash moliyalashtirish mexanizmlarini O‘zbekiston sharoitida rivojlantirishda davlat va xalqaro moliya institutlari resurslarining xususiy investitsiyalarni to‘ldiruvchi xususiyatga ega bo‘lishiga e’tibor qaratish zarur. Bunda imtiyozli mablag‘lardan foydalanish doimiy moliyaviy qaramlikni shakllantirmasdan, loyihalarning kelgusida mustaqil moliyaviy barqarorlikka erishishiga xizmat qilishi lozim.

Yuqoridagi tahlillar moliyalashtirish instrumentlarining samaradorligi ularni qo‘llash ko‘lamidangina emas, balki loyihalarning iqtisodiy va ekologik xususiyatlariga muvofiq tanlanishidan ham kelib chiqishini ko‘rsatadi. Shu sababli “yashil” moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishda investitsiya loyihalarini tasniflash hamda ularning ekologik natijalarini baholash muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son qarori bilan tasdiqlangan Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasi iqtisodiy faoliyat turlari va loyihalarni ekologik mezonlar asosida tasniflashning institutsional asosini yaratgan.[6] Ushbu tizimdan moliyaviy tashkilotlarning investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida foydalanish moliyalashtirilayotgan loyihalarning ekologik maqsadlarga muvofiqligini aniqlashga xizmat qilishi mumkin.

O‘zbekistonda moliyaviy instrumentlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun “loyihaning investitsiyaviy xususiyati – moliyaviy instrument – kutilayotgan ekologik va iqtisodiy natija” o‘rtasidagi bog‘liqlikka asoslangan differensial moliyalashtirish yondashuvini rivojlantirish zarur.

Mazkur yondashuv doirasida moliyalashtirish instrumentini tanlash loyihaning boshlang‘ich xarajatlari, kutilayotgan pul oqimlari, investitsiyaning qaytarilish muddati, risk darajasi va ekologik samaradorligiga asoslanishi lozim. Natijada moliyaviy resurslarning loyiha ehtiyojlariga mos taqsimlanis

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son “2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/acts/-4539502

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/acts/-6303230

3. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). GEFF II Uzbekistan. Project ID 53775, 2023.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 10-maydagi O‘RQ-537-son “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. URL: https://lex.uz/acts/-4329270

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi 561-son “Milliy “yashil” iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. URL: https://lex.uz/docs/-6644013

6. European Bank for Reconstruction and Development. GEFF II Uzbekistan. Project ID 53775. London: EBRD, 2023. URL: https://www.ebrd.com/home/work-with-us/projects/psd/53775.html